

**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING
HOZIRGI HOLATI VA TIZIMLI MUAMMOLARI TAHLILI****Iskandarova Farangiz Alisher qizi***O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**“Iqtisodiyotni monetar tartibga solish” mutaxassisligi magistranti*

ORCID: 0009-0000-2084-7696

E-mail: farangizalisherovna10@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2026-yil boshidagi holatga ko‘ra O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarini kreditlash mexanizmlari, sohadagi ijobiy o‘sish dinamikasi va saqlanib qolayotgan tizimli muammolar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank tizimining raqamli transformatsiyasi, sun‘iy intellekt asosidagi skoring tizimlarining samaradorligi va garov ta‘minoti bilan bog‘liq to‘siqlar ilmiy asosda o‘rganilgan. Maqolayakunida 2026-yilgi strategik maqsadlarga erishish va tadbirkorlarning moliyaviy inklyuzivligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tijorat banklari, raqamli kreditlash, kredit skoringi, islomiy moliya, NPL (muammoli kreditlar), moliyaviy barqarorlik, garov ta‘minoti, raqamli kredit pasporti.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of small and medium enterprise (SME) lending mechanisms in the economy of Uzbekistan as of the beginning of 2026, highlighting positive growth dynamics and persisting systemic challenges. The study scientifically examines the digital transformation of the banking system, the effectiveness of AI-based scoring systems, and barriers related to collateral requirements. The paper concludes with practical proposals for achieving 2026 strategic goals and enhancing financial inclusion for entrepreneurs.

Key words: small business, commercial banks, digital lending, credit scoring, Islamic finance, NPL (non-performing loans), financial stability, collateral, digital credit passport.

Аннотация: В данной статье на основе данных начала 2026 года проводится

комплексный анализ механизмов кредитования субъектов малого и среднего бизнеса (МСБ) в экономике Узбекистана, рассматриваются положительная динамика роста и сохраняющиеся системные проблемы. В исследовании научно обоснованы вопросы цифровой трансформации банковской системы, эффективность скоринговых систем на базе искусственного интеллекта и барьеры, связанные с залоговым обеспечением. В завершении статьи выдвинуты практические предложения по достижению стратегических целей 2026 года и повышению финансовой инклюзивности предпринимателей.

Ключевые слова: *малый бизнес, коммерческие банки, цифровое кредитование, кредитный скоринг, исламские финансы, NPL (проблемные кредиты), финансовая стабильность, залоговое обеспечение, цифровой кредитный паспорт.*

Kirish. 2026-yilga kelib O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznes sektori yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 55 foizidan ortig‘ini va jami band aholining qariyb 75 foizini ta‘minlovchi asosiy drayverga aylandi [1]; [2]. Davlat rahbari tomonidan 2026-yilda ushbu sohani rivojlantirish uchun rekord darajadagi 140 trillion so‘m kredit mablag‘lari ajratilishi belgilangan bo‘lib, bu o‘tgan yillarga nisbatan moliyaviy resurslar ko‘lamining sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi [3]; [4]. Biroq, resurslar hajmi ortishi bilan birga, ularni taqsimlash samaradorligi, kredit xatarlarini boshqarish va chekka hududlardagi tadbirkorlarning moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati dolzarb masalalar bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oyd adabiyotlar sharhi. Kichik biznesni moliyalashtirish va kreditlash nazariyasi jahon miqyosida Joseph Alois Schumpeter (1934) va Peter Ferdinand Drucker kabi klassik olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular innovatsiyalarni iqtisodiy o‘shining asosiy kuchi sifatida ta‘riflaganlar [5]; [6]. F.Mishkin (2019) esa bank innovatsiyalarining xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirishdagi rolini alohida ta‘kidlagan [7]. Allen N. Berger va Gregory F. Udell (2006) kichik biznesning moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish iqtisodiyotda bandlikni oshirishning kaliti ekanligini isbotlaganlar [8].

O‘zbekistonlik olim va tadqiqotchilardan Sh.Z. Abdullaeva va J.Y Isakov (2017) bank risklari va kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalarini [9]; [10], A. Bekmurodov (2023) esa tijorat banklari tomonidan KOB subyektlarini kreditlashdagi tizimli muammolarni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq etgan [11]. B. Mahmudov (2024) bank tizimida raqamli texnologiyalar va huquqiy bazani modernizatsiya qilish zarurligini asoslab bergan bo‘lsa [12], M. Madjitova (2025) raqamli bank xizmatlarining tadbirkorlar uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishdagi afzalliklarini yoritgan. A. Soatov (2025) kichik biznes uchun avtomatlashtirilgan kredit skoring modellarini joriy etish orqali inson omilini kamaytirish bo‘yicha ilmiy takliflar bergan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik metodlaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligining 2020–2025-yillardagi yillik hisobotlari hamda 2026-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. 2026-yil boshiga kelib, O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarini kreditlash tizimi miqdor va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2024–2026-yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bank tizimida raqamli texnologiyalar ulushi keskin ortdi [2]; [13].

1. Kreditlash hajmining o‘shish dinamikasi.

Davlat rahbari tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq, 2026-yilda KOB subyektlariga ajratiladigan kredit resurslari hajmi 140 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda [4]. Bu moliyaviy resurslar ko‘lami tadbirkorlarning texnologik yangilanishi va bandlikni ta‘minlashdagi rolini oshiradi [8].

1-jadval. **Kichik biznesga ajratilgan kreditlar dinamikasi**

Ko‘rsatkichlar	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2026-y. (prognoz)
Jami kreditlar (trln so‘m)	78.4	92.1	115.6	140.0
Raqamli kreditlar ulushi (%)	12%	22%	38%	45%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2. Raqamli skoring va innovatsiyalar.

Tijorat banklari tomonidan AI (sun‘iy intellekt) asosidagi skoring modellarining joriy etilishi inson omilini kamaytirish va kredit xatarlarini minimallashtirish imkonini berdi [3]. A. Soatov (2025) ta‘kidlaganidek, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali ajratilayotgan kreditlar hajmi banklarning operatsion xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirmoqda [3]. Shuningdek, raqamli bank xizmatlari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali tadbirkorlar uchun moliyaviy ochiqlikni ta‘minladi [13].

3. Tizimli muammolar va to‘siqlar.

Sohadagi ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

- Garov ta‘minoti: Likvidli garov aktivlarining yetishmasligi tadbirkorlarning 40% dan ortig‘i uchun asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda [11].
- Kredit xatarlari: Kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) ulushining barqarorligini saqlash bank risk-managementini takomillashtirishni talab etadi [10].

- Mintaqaviy disproporsiya: Kredit mablag‘larining hududlar kesimidagi taqsimotida markazlashuv darajasi yuqoriligicha qolmoqda [2].

4. Islomiy moliya darchalari.

Jahon banki (2025) va mahalliy tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, iqtisodiyotda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish uchun islomiy moliya tamoyillarini joriy etish o‘ta muhimdir [1]; [12]. Bu an‘anaviy kreditlashdan foydalanmaydigan tadbirkorlar qatlamini moliya bozoriga jalb qilish imkonini beradi.

5. Skoring tizimining samaradorlik tahlili.

Raqamli transformatsiya natijasida kredit berish tezligi va sifatining o‘zgarishini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

2-jadval. An‘anaviy va raqamli (skoring) kreditlash jarayonlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari (2025-2026-yy. tahlili)


Ko‘rsatkichlar	An‘anaviy kreditlash	Raqamli skoring tizimi	Farq (samaradorlik)
Arizani ko‘rib chiqish vaqti	3-7 ish kuni	5-15 daqiqa	200 baravar tez
Kerakli hujjatlar soni	8-10 tagacha	0 (integratsiyalashgan)	To‘liq optimallashtirilgan
Operatsion xarajatlar ulushi	4.5%	1.2%	3.7 baravar arzon
Inson omili ta‘siri	Yuqori	Minimal	Mavjud emas

Manba: Muallif tomonidan tijorat banklari tajribasi asosida shakllantirilgan.

6. Kredit resurslarining sohalar bo‘yicha taqsimoti

Kreditlarning qaysi sohalarga yo‘naltirilayotganini tahlil qilish iqtisodiyotning real sektoridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.

1-rasm. 2026-yilgi kredit portfelining sohalar bo‘yicha tarkibi (prognoz ko‘rsatkichlari)



1-rasm shuni ko'rsatadiki, kreditlarning asosiy qismi tez aylanuvchi mablag'larga ega xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilmoqda. Biroq, 2026-yilgi strategik maqsadlarga muvofiq, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi IT va innovatsion loyihalarni kreditlash ulushi hali ham past darajada qolmoqda [12]. Bu esa kelgusida davlat tomonidan aynan shu yo'nalishlarni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarini kreditlash tizimini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, 2026-yilga kelib moliya bozori miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga o'tish bosqichini yakunlamoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi banklar va tadbirkorlar o'rtasidagi masofani qisqartirdi, biroq tizimli muammolarni to'liq bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Garov siyosatini liberallashtirish: Kichik biznes uchun garov ta'minoti muammosini hal etish maqsadida "Intellektual mulkni garovga qo'yish" amaliyotini kengaytirish va Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan beriladigan kafilliklar ulushini innovatsion loyihalar uchun 75% gacha oshirish lozim.

2. Raqamli kredit pasportini takomillashtirish: Tadbirkorlarning kredit tarixi, soliq to'lovlari va kommunal xarajatlari asosida shakllanadigan yagona "Raqamli kredit pasporti" tizimini Markaziy bankning "Kredit-axborot tahliliy markazi" bilan to'liq integratsiya qilish. Bu NPL (muammoli kreditlar) darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Mintaqaviy moliyaviy inklyuzivlik: Chekka tumanlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun "Mobil bank ofislari" va agentlik tarmog'ini kengaytirish orqali mintaqaviy disproporsiyani kamaytirish. Hududlarda yangi ish o'rinlari yaratgan tadbirkorlar

uchun kredit foiz stavkalarini tabaqalashtirilgan (pasaytirilgan) tartibda qo‘llash.

4. Islomiy moliya mahsulotlarini joriy etish: Tijorat banklarida “Islomiy moliya darchalari” faoliyatini huquqiy tartibga solishni tezlashtirish. Bu nafaqat ichki resurslarni jalb qilish, balki Yaqin Sharq davlatlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga yordam beradi.

5. Ekologik (“Yashil”) kreditlash: Kichik biznes subyektlarining energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishiga yo‘naltirilgan loyihalarini past foizli “Yashil kreditlar” orqali rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, 2026-yilga borib kichik biznesni kreditlash tizimining samaradorligi nafaqat ajratilayotgan mablag‘lar hajmi, balki ularning raqamli texnologiyalar va moslashuvchan moliyaviy instrumentlar orqali qanchalik manzilli yetib borishi bilan o‘lchanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The World Bank. (2025). Financial Inclusion for Growth, Returns, and Opportunities for Work (FIGROW) MPA Phase 1 - Uzbekistan (P511700). Project Information Document (PID). Concept Stage. - Washington D.C. URL: <https://documents.worldbank.org>

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2024-yil bo‘yicha yillik hisobot. - Toshkent: Markaziy bank nashriyoti. - www.cbu.uz.

3. Soatov A.B. (2025). Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda kredit skoring tizimini joriy etish va moliyaviy resurslarni ajratish samaradorligini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish // Лучшие интеллектуальные исследования. - 56-qism, 2-tom. - Noyabr. - 18-29-betlar.

4. Murodov H. (2026). O‘zbekistonda 2026-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga 140 trln so‘m kredit ajratiladi. // Daryo.uz.

5. Schumpeter J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.

6. Drucker P. (1985) Innovation and Entrepreneurship: Practices and Principles. Harper & Row, New York.

7. Mishkin F.S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education.

8. Berger A.N., & Udell G.F. (2006). “A more complete conceptual framework for SME finance”. Journal of Banking & Finance.

9. Abdullayeva Sh.Z. (2017). Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Iqtisod-Moliya”. - 618 b.

10. Isakov J.Y. (2017). Bank risklari. Darslik / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti. – 264 b.
11. A.A. Bekmurodov Kichikbiznes sub’ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribalari. “Теория и практика современной науки” №6(96) 2023 .
12. Mahmudov B.B. (2024). Tijorat banklarining innovatsion faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. // International Journal of Integrated Sciences, 1(1).
13. Madjitova M. (2025). Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari. // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. - 3-tom, 5-son.